

---

## Buvayda tumanidagi “Tashabbusli byudjet” loyihasi g‘oliblari

2023 yilgi “Tashabbusli byudjet” loyihasining 1-mavsumida Buvayda tumanida eng ko‘p ovoz to‘plab, g‘olib deb topilgan loyihalar soni 16 taga yetdi. Shundan 8 tasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-apreldagi “Tashabbusli budjetlashtirish amaliyotini yanada takomillashtirish hamda faol mahallalarni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-117-sonli qaroridan kelib chiqib, eng ko‘p ovoz to‘plagan bo‘lib, ularga 7 800 mln (yetti milliard sakkiz yuz million) so‘m mablag‘; qolgan 8 tasi esa O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-apreldagi “Tashabbusli budjetlashtirish amaliyotini yanada takomillashtirish hamda faol mahallalarni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-117-sonli qaroriga asosan 2000 tadan ortiq ovoz to‘plab g‘olib bo‘lgan loyihalar va ularga 9 475 mln (to‘qqiz milliard to‘rt yuz yetmish besh million) so‘m mablag‘ moliyalashtirilmoqda. Hammasi bo‘lib Umumiy natijaga ko‘ra loyihaning ayni mavsum doirasida g‘olib bo‘lgan loyihalar uchun byudjetdan 17 mlrd 275 mln so‘m mablag‘ ajratiladi. Bu esa viloyatda yaxshi o‘rinlardan birini tashkil etmoqda. G‘olib bo‘lgan takliflarni qurilish va ta‘mirlash ishlarni yakuniy oy avgust oyi muddati belgilandi.

2023-04-18 18:43:43